


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2023- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2023-yil yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 89,2 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar, mln.AQSh dollari)

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 36,6 mln.AQSh dollariga (90,4 % ga kamaydi) va import hajmi 52,6 mln.AQSh dollariga (3,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 16,0 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2023- yil yanvar, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	31,5	23,9	7,6	35,3
Xitoy	17,8	1,9	15,8	19,9
Qozog'iston	10,2	3,2	7,0	11,5
Turkiya	7,5	1,7	5,8	8,4
Polsha	2,8	1,1	1,7	3,2
Germaniya	2,1	0,3	1,7	2,3
Qirg'iziston	2,0	1,4	0,7	2,3
Koreya Respublikasi	1,9	0,2	1,7	2,1
Litva	1,5	0,0	1,5	1,7
Belorussiya	1,2	0,4	0,8	1,4

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 48 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (35,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (19,9 %), Qozog'istonda (11,5 %), Turkiyada (8,4 %), Polsha (3,2 %), Germaniya (2,3 %) va Qirg'iz Respublikasida (2,3 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (31,5 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (17,8 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2023- y.
Rossiya Federatsiyasi	19129,5	27160,7	31481,1
eksport	12541,4	19983,9	23884,8
import	6588,1	7176,8	7596,3
saldo	5953,3	12807,1	16288,5
Xitoy	21186,5	25061,9	17778,0
eksport	5280,2	5208,9	1929,4
import	15906,3	19853,1	15848,6
saldo	-10626,1	-14644,2	-13919,2
Qozog'iston	10581,1	5055,7	10237,3
eksport	1475,7	1340,2	3218,5
import	9105,5	3715,5	7018,8
saldo	-7629,8	-2375,3	-3800,4
Turkiya	3894,7	9617,2	7533,8
eksport	1201,8	4765,2	1732,7

import	2692,9	4852,0	5801,1
saldo	-1491,2	-86,9	-4068,4
Polsha	418,1	842,6	2817,7
eksport	240,9	449,3	1142,7
import	177,2	393,3	1674,9
saldo	63,6	56,0	-532,2
Germaniya	893,0	1451,5	2057,4
eksport	49,0	548,6	317,7
import	844,0	902,9	1739,8
saldo	-795,0	-354,3	-1422,1
Qirg'iziston	3947,8	5515,5	2037,1
eksport	3289,5	4572,2	1372,5
import	658,3	943,3	664,5
saldo	2631,2	3628,9	708,0
Koreya Respublikasi	960,3	2119,9	1859,0
eksport	11,7	220,1	190,2
import	948,6	1899,8	1668,7
saldo	-936,9	-1679,6	-1478,5
Litva	48,0	1064,1	1512,0
eksport	-	25,8	25,6
import	48,0	1038,3	1486,5
saldo	-48,0	-1012,5	-1460,9
Belorussiya	528,9	752,2	1237,5
eksport	123,4	137,1	397,2
import	405,6	615,1	840,3
saldo	-282,2	-478,0	-443,1
Italiya	301,9	307,4	1177,2
eksport	92,6	103,4	315,7
import	209,3	204,0	861,5
saldo	-116,7	-100,6	-545,8
Hindiston	1315,5	1756,9	1111,8
eksport	232,8	148,2	-
import	1082,6	1608,7	1111,8
saldo	-849,8	-1460,5	-1111,8

Ukraina	1246,5	2198,3	1024,5
eksport	539,4	1157,5	218,3
import	707,1	1040,8	806,3
saldo	-167,7	116,7	-588,0
Malayziya	535,7	477,1	866,5
eksport	-	-	-
import	535,7	477,1	866,5
saldo	-535,7	-477,1	-866,5
Shvetsariya	8,9	366,5	764,1
eksport	-	-	-
import	8,9	366,5	764,1
saldo	-8,9	-366,5	-764,1
Eron	218,4	755,4	714,4
eksport	-	121,8	251,8
import	218,4	633,6	462,6
saldo	-218,4	-511,8	-210,8
Argentina	987,8	43,6	644,2
eksport	-	-	-
import	987,8	43,6	644,2
saldo	-987,8	-43,6	-644,2
Afg'aniston	1203,2	30,0	587,5
eksport	1203,2	-	587,5
import	-	30,0	-
saldo	1203,2	-30,0	587,5
Indoneziya	263,6	-	476,6
eksport	-	-	-
import	263,6	-	476,6
saldo	-263,6	-	-476,6
BAA	12,5	-	363,8
eksport	-	-	146,3
import	12,5	-	217,6
saldo	-12,5	-	-71,3

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023 - yil yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022- yilga nisbatan ulushi 2,9 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2023- yil yanvar oyida 2022- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (2,4 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,6 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlar soni 157 tani tashkil etib, ular tomonidan 36,6 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 90,4 % ga kamaydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,6 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (57,6 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (21,2 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (9,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	581,2	434,2	147,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	3,6	2,0	1,6	9,9	6,8	22,9
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	-	0,7	0,8	-
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,8	0,0	0,8	2,3	0,2	11,0
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,1	0,1	-	0,1	0,2	-
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	21,1	18,1	3,0	57,6	61,4	42,0
Mashina va transport uskunalari	1,2	1,2	0,0	3,4	4,2	0,0
Har xil tayyor mahsulotlar	7,7	6,4	1,3	21,2	21,8	18,4
Xizmatlar	0,9	0,5	0,4	2,4	1,6	5,8
Boshqalar	0,9	0,9	-	2,4	2,9	-

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar, % va ulushi)




2023- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 65,2 %), Qozog'iston (8,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (5,3 %), Turkiya (4,7 %), Qirg'iz

Respublikasi (3,7 %), Polsha (3,1 %) va Afg'oniston (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,5 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2023 – yilning mos davrida 29 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2023- yil yanvar, % da)**



- | | |
|-------------------------|--------------------|
| ■ Rossiya Federatsiyasi | ■ Qozog'iston |
| ■ Xitoy | ■ Turkiya |
| ■ Qirg'iziston | ■ Polsha |
| ■ Afg'oniston | ■ Boshqa davlatlar |

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar)

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2023- y.	2021- y.	2023- y.	2021- y.	2023- y.
Rossiya Federatsiyasi	19983,9	23884,8	159,3	119,5	1	1
Qozog'iston	1340,2	3218,5	90,8	240,2	5	2
Xitoy	5208,9	1929,4	98,6	37,0	2	3
Turkiya	4765,2	1732,7	396,5	36,4	3	4
Qirg'iziston	4572,2	1372,5	139,0	30,0	4	5
Polsha	449,3	1142,7	186,5	254,3	8	6
Afg'oniston	-	587,5	-	-	18	7
Belorussiya	137,1	397,2	111,1	289,7	12	8
Germaniya	548,6	317,7	1119,6	57,9	7	9
Italiya	103,4	315,7	111,7	305,3	15	10
Eron	121,8	251,8	-	206,7	13	11
Ozarbajjon	117,3	227,0	-	193,5	14	12
Ukraina	1157,5	218,3	214,6	18,9	6	13
Koreya Respublikasi	220,1	190,2	1881,2	86,4	10	14
Quvayt	-	157,4	-	-	19	15
Tojikiston	397,4	150,8	355,2	37,9	9	16
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	-	146,3	-	-	20	17
Isroil	73,9	110,7	-	149,7	16	18
Avstriya	71,9	54,9	-	76,5	17	19
Moldova Respublikasi	151,8	40,4	209,7	26,6	11	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 885,9 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,4 % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,9 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 29,4 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 80,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 91,6 % ga pasaydi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar)

2023 - yil yanvar oyida import hajmi 52,6 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,6 %), Sanoat mahsulotlari (23,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 52,6 mln.AQSh dollarini tashkil etdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2023- yil yanvar)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	52,6	17,3	35,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	9,3	6,3	3,0	17,7	36,6	8,4
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	2,6	2,3	0,2	4,9	13,6	0,7
Mineral yoqilg'i, moylash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,7	0,6	0,1	1,4	3,6	0,2
Hayvonlar va o'simlik moyi, yog'lar va mumlar	1,5	0,5	1,0	2,9	2,7	3,0
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,2	1,8	6,4	15,5	10,2	18,1
Sanoat mahsulotlari	12,5	5,2	7,3	23,7	30,1	20,6
Mashinalar va transport uskunalari	14,0	0,2	13,8	26,6	1,3	38,9
Turli xil tayyor mahsulotlar	1,2	0,2	0,9	2,2	1,4	2,6
Boshqalar	2,7	0,1	2,6	5,2	0,5	7,5

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (36,6 %) Sanoat mahsulotlari (30,1 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (38,9 %), Sanoat mahsulotlari (20,6 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 63,7 % ga, xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat mahsulotlari importi 15,7 % ga va kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 12,4 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 30,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 14,4 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2022- y.	2023-y.	2022- y.	2023-y.	2022- y.	2023-y.
Xitoy	19853,1	15848,6	124,8	79,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	7176,8	7596,3	108,9	105,8	2	2
Qozog'iston	3715,5	7018,8	40,8	188,9	4	3
Turkiya	4852,0	5801,1	180,2	119,6	3	4
Germaniya	902,9	1739,8	107,0	192,7	11	5
Polsha	393,3	1674,9	221,9	4,3 m.	15	6
Koreya Respublikasi	1899,8	1668,7	200,3	87,8	6	7
Litva	1038,3	1486,5	21,6 m.	143,2	9	8
Hindiston	1608,7	1111,8	148,6	69,1	7	9
Malayziya	477,1	866,5	89,1	181,6	14	10
Italiya	204,0	861,5	97,5	4,2 m.	18	11
Belorussiya	615,1	840,3	151,7	136,6	13	12
Ukraina	1040,8	806,3	147,2	77,5	8	13
Shveysariya	366,5	764,1	40,1 m.	208,5	16	14
Qirg'iziston	943,3	664,5	143,3	70,4	10	15
Argentina	43,6	644,2	4,4	14,8 m.	19	16
Indoneziya		476,6	-	-	20	17
Eron	633,6	462,6	2,9 m.	73,0	12	18
Frantsiya	205,1	316,6	51,5	154,4	17	19
Turkmaniston	2547,8	245,8	5,4 m.	9,6	5	20

2022- yining mos davriga nisbatan 38 davlatdan 42 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2023- yil yanvar % da)**



Yettita yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya Polsha, Koreya Respublika) jami importning 78,6 % ini tashkil qiladi, bu 41 348,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(69)-211-72-00**